

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ADABIY TA'LIMDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV

Duschanova Nilufar Sabirbayevna

UrDU o'qituvchisi

ANNOTATSIYA. Ushbu maqola adabiy ta'limni shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etishda taqqoslash usulidan foydalanish metodikasi muammolariga bag'ishlangan. Maqolada adabiyot mashg'ulotlarida badiiy asar tahlilini maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil masalalari ham yoritilgan.

Kalit so'z va iboralar: Yangi O'zbekiston, taraqqiyot strategiyasi, ma'naviy taraqqiyot, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, adabiy-nazariy tushunchalar, taqqoslash.

O'quvchi shaxsini shakllantirishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv maqsadi hayot mazmuni va prinsiplarini aniqlash, qaror qabul qila olish, javobgarlik hissini shakllantirish, mustaqil ishlash, ijodiy tafakkur, tashabbuskorlik, o'zini boshqarish ko'nikmalarini tarkib toptirish kabi shaxslik sifatlarini rivojlantirishdan iborat. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv pedagogik atamalar lug'atida shaxsiyatli yondashuv atamasi bilan ifodalangan bo'lib, unda bu atama "...pedagogning tarbiyalanuvchiga o'z tarbiyasi va rivojlanishiga ongli yondashadigan shaxs sifatida qarashini ifodalovchi yondashuv"¹ deya izohlangan.

Boshlang'ich sinf "O'qish" darslarida badiiy asar ustida ishlash asosan tarbiyaviy xarakterga ega bo'lsa-da, o'quvchilar amaliy ravishda ertak, maqol, masal, topishmoq, tez aytish, she'r, qofiyadosh so'zlar, hikoya, misra, asar qahramoni bilan birga badiiy til vositalari – sifatlash, o'xshatish, jonlantirish, mubolag'a kabi adabiy-nazariy tushunchalar tanishtiriladi.

5-sinfda mazkur bilimlar maxsus atamalar bilan konkretlashadi. Bu sinfda o'quvchilar obrazli fikrlash, adabiy turlar, xalq og'zaki poetik ijodi, masal, majoz, ertak-doston, adabiy ertak, muhaddislik ilmi, sarguzasht asar, hikoya va qissa janrlari kabi tushunchalar mohiyatini anglay boshlaydilar. Yuqori sinflarda adabiy-nazariy tushunchalar ustida ishlash murakkablashadi.

Ma'lumki, yuqori sinflarda biron davrning adabiy jarayonni o'rganishda ham, yozuvchining hayoti va ijodiy faoliyatini o'zlashtirishda ham, shu yozuvchining dasturda ko'rsatilgan asari o'rganilganda ham, bularning hammasi ma'lum davrdagi ijtimoiy hayot va tarixiy sharoit bilan bog'lab olib boriladi. Shuning o'zi adabiyot

¹ Джураев Р.Х. ва бошқалар. Педагогик атамалар луғати. – Т.: "Фан", 2008.-143-бет.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

o'qituvchisidan tarix fanini chuqur bilishni taqozo qiladi. Mana shu tarixiy nuqtayi nazardan o'quvchilar asarning g'oyaviy tomonlariga, kompozitsiyasiga va badiiy xususiyatlariga to'g'ri yondashishga o'rganadilar. Buning natijasida o'quvchilarda adabiy-tarixiy jarayon, yozuvchi mansub bo'lgan adabiy oqim, adabiy oqim va uslublarning o'zgarib turishi yuzasidan ilmiy asoslangan tushunchalar shakllantiriladi.

10-11-sinflarda adabiyot darslari yana chuqurlashtirilishi, bilimlar doirasi kengaytirilishi, adabiyotning ijtimoiy ahamiyati, ijodkorning qanday oqimga mansubligi, adabiy oqim turlari va ularning asosiy mohiyati haqidagi adabiy-nazariy tushunchalar shakllantirilishi bilan quyi sinflardan farq qiladi.

Bunday tushunchalarni shakllantirishda qo'llanadigan qiyoslash usuli adabiyot darslarini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkil etishning muhim omili hisoblanadi.

Bosh g'oyasi Vatan ozodligi, uning taraqqiyoti bo'lgan asarlar o'zbek adabiyoti turli janrlar doirasida ko'p uchraydi. Shu mavzudagi asarlar bilan o'quvchilar 11-sinfda Abdurauf Fitratning "Abulfayzxon"² fojiasi, Abdulhamid Cho'lponning "Kecha va kunduz"³ romani orqali tanishadilar. Mazkur asarlar turli janrlarga mansub bo'lsa-da, g'oyasi jihatidan bir-biriga yaqin. 11-sinf "Adabiyot" darsligida Abdulhamid Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidan olingan parchada asosan bahorda Zebining qizlar bilan qishloqqa borishi bilan bog'liq voqealar tasviri aks etgan. Asarning bosh g'oyasi yuzasidan qaraladigan bo'lsa, romanning bu qismi berilishi maqsadga muvofiq emas.

Tematik jihatdan o'xshash bo'lgan asarlarni bir-biriga taqqoslab ko'rish usuli asosida tashkil etiladigan adabiyot darsida Vatan taraqqiyoti uchun cholinagan adib asarining Miryoqub va jadid munosabatlari⁴ aks etgan o'rinlari keltirilishi ayni muddao bo'lar edi. Asarning aynan o'sha o'rinlarini mustaqil o'qish darslarida

² Adabiyot. 11-sinf uchun darslik. II qism//To'liyev B., Karimov B., Usmonova K.// - T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.- 4-bet.

³ Adabiyot. 11-sinf uchun darslik. II qism//To'liyev B., Karimov B., Usmonova K.// - T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.- 36-bet.

⁴ Шерматова, У. С. (2020). Чўлпон ижодида истиқлол ғоялари. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 369-373.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

amalgama oshirish, so‘ng tahlilni “Abulfayzxon” fojiasiga qiyolab amalgama oshirish ham ko‘zlangan natijani beradi.

Badiiy asarlardagi o‘xshash yoki qarama-qarshi obrazlarni taqqoslash usuli adabiy asarlarni tahlil qilishda yetakchi usullardan hisoblanadi. Usulni ayniqsa xalq og‘zaki ijodi namunasi hisoblangan doston janridagi asarlarni o‘zlashtirishda samarali qo‘llash mumkin. Masalan, 11-sinf dasrligidan joy olgan “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”⁵ dostonidagi Odilxon podsho bilan Shohdorxon obrazlarning farqli tomonlari taqqoslash asosida aniqlanadi. Taqqoslash asosida o‘quvchilar Go‘ro‘g‘lining bobosi Odilxon podsho bilan Shohdorxonning o‘ziga xos bo‘lgan xislatlarini yoritadilar. Odilxon podshoning insoniy fazilatlariga qarama-qarshi o‘laroq, Shohdorxonning nuqsonlarini aniqlab, ikkala obrazga tavsif beradilar.

Turli asar qahramonlarining o‘xshash jihatlari mavjudligini ko‘zda tutgan holda ham qiyoslab o‘rganiladigan obrazlar adabiyotda talaygina. Bunga Zebi (“Kecha va kunduz”) va Unsin (“Dahshat”), Qoravoy (“Shum bola”) va Hoshimjon (“Sariq devni minib”), Alpomish (“Alpomish”) va Go‘ro‘g‘li (“Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi”), Xurshid Davron va Sirojiddin Sayyid she‘riyatida lirik qahramon obrazlarining qiyosiy tavsifi misol bo‘la oladi.

Turli sinflarda tanishtirilgan bir ijodkorning bir necha asarlarini o‘quvchilarning ko‘z oldiga keltirish orqali ularda shu yozuvchi haqida to‘laroq tasavvur hosil qilinadi. Yuqori sinflarda ularning avvalgi yillarda o‘rganilgan asarlarini keyingi asarlari bilan solishtirish yoki dasturga kiritilmagan asosiy asarlarini mustaqil o‘zlashtirish o‘quvchilarda shu yozuvchi, uning ijod usuli haqida mukammal tushuncha hosil qiladi.

Xulosa qilganda, qiyosiy tahlilni amalga oshirishda tuziladigan savollar asarning barcha muhim jihatlarni qamrab olishiga e‘tibor qaratish lozim. Savollarning shaxsga yo‘naltirilganligi o‘qituvchining diqqat markazida bo‘lishi o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, badiiy asarga shaxsiy baho berish ko‘nikmalarini shakllantirish omili sifatida qaralmog‘i lozim.

⁵ Adabiyot. 11-sinf uchun darslik. I qism//To‘liyev B., Karimov B., Usmonova K.// - T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.- 8-bet.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

REFERENCES/FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Adabiyot. 10-sinf uchun darslik. I qism//To‘liyev B., Karimov B., Usmonova K.// - T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.
2. Adabiyot. 11-sinf uchun darslik. I qism//To‘liyev B., Karimov B., Usmonova K.// - T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.
3. Adabiyot. 11-sinf uchun darslik. II qism//To‘liyev B., Karimov B., Usmonova K.// - T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.
4. Axmedova L.T., Kon V.Ya. Metodika prepodavaniya literatury.-T.:Nasionalnoye obshchestvo filosofov Uzbekistana, 2009.
5. S.Dolimov, H.Ubaydullayev, Q.Ahmedov. Adabiyot o‘qitish metodikasi.-T.: “O‘qituvchi”,1986.
6. Shermatova, U. S. (2020). Cho‘lpon ijodida istiqlol g‘oyalari. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3).



E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings



E- CONFERENCE
SERIES